

**OLIY TA’LIM TALABALARINING BO’SH VAQTINI MAZMUNLI TASHKILLASHDA “QO’L TO’PI” O’YININI RIVOJLANTIRISHDA, “MILLIY XARAKATLI O’YINLAR” ORQALI, JISMONIY MASHQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.**

**Turaqulova Fotima Sultonboy qizi  
Andijon davlat universiteti, fakultetlararo  
jismoniy madaniyat va sport kafedrasida o’qituvchisi.**

**Annotatsiya.** Ilmiy maqolani yozishdan maqsad, yosh gandbolchilarni saralash metodikasini takomillashtirish, gandbol sport o’yiniga xos ustuvor qobiliyatlarini tahlil qilib, rivojlantirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Milliy xarakatli o’yinlar orqali qo’l to’pi bilan shug’illanuvchi talabalarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirish ko’zda tutilgan xamda pedagogik maxorat va shug’illanuvchilarni sog’ligi nazorat qilingan.

**Kalit so’zlari:** iqtidorli, jismoniy tarbiya, ommaviy sport, metodlar, usullar, qo’llanmalar, gandbol, sifat, qobiliyatlar.

**Абстрактный.** Цель написания научной статьи – совершенствование методики отбора юных гандболистов, анализ и разработка рекомендаций по развитию приоритетных навыков, специфичных для гандбольных видов спорта. Посредством национальных динамичных игр планируется развивать качества ловкости учащихся, занимающихся гандболом, осуществляется контроль педагогического мастерства и здоровья игроков.

**Ключевые слова:** одаренность, физическое воспитание, массовый спорт, методы, методики, пособия, гандбол, качества, способности.

**Abstract.** The purpose of writing a scientific article is to improve the selection methodology of young handball players, to analyze and develop recommendations for the development of the priority skills specific to handball sports. Through the national dynamic games, it is planned to develop the qualities of agility of the students playing handball, and the pedagogical skills and health of the players are monitored.

**Key words:** gifted, physical education, mass sports, methods, methods, manuals, handball, quality, abilities.

Bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Gandbol keng tarqalgan sport turlaridan biri bo'lib, u o'quvchi yoshlarni jismoniy rivojlantirish, ularning salomatligini mustahkamlashning eng ommabop, eng qulay vositalaridan biridir. Hozirgi kunda gandbol sport turiga talab juda katta, yoshlarimiz gandbol sport o'yiniga juda katta qiziqish bildirishmoqda. Ushbu ilmiy maqola davomida yosh gandbolchilarni saralash metodikasini takomillashtirish uchun qanday metodlar, usullar, qo'llanmalardan foydalanish kabi savollarga javob qidiramiz.

Gandbol bo'yicha yoshlar o'rtasida sobiq ittifoq bo'yicha musobaqalari 1960-yili Xarkov shahrida o'tkazildi va shundan so'ng gandbol o'yini tez rivojlana boshlandi. 1960-yilda O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida ilk bor gandbol mutaxassisligi bo'limi tashkil

qilingan bo‘lib, 1960-yildan boshlab Toshkent shahar birinchiliklarida 16-20 jamoa qatnasha boshladi va O‘zbekiston gandbol sportchilarining sobiq ittifoq musobaqalarida qatnasha boshlagan yili deb qayd etildi. 1997-yilning dekabr oyida SH.K.Pavlov va F.A.Abdurahmonovlar rahbarligida O‘zDJTI talaba qizlari asosida tarkib topgan respublika terma jamoasi Germaniyada o‘tkazilgan jahon chempionatida Xitoy, Braziliya va Urugvay jamoalarini ortda qoldirib, O‘zbekiston gandbol o‘yinini dunyoga tanitgan. Yosh gandbolchilarni tanlash va tayyorlashda Oliy ta’lim talabalaridagi gandbol bo‘yicha kuni uzaytirilgan va o‘quv mashg‘ulotlari chuqur o‘zlashtiriladigan maxsus guruxlar katta ro‘l o‘ynaydi. Bunda talabalar gandbolga mehr qo‘yadilar va gandbol o‘ynash sirlarini o‘rganadilar. Yosh gandbolchilarni saralash metodikasini takomillashtirish uchun yoshlarda umumiy jismoniy tayyorgarlikni yanada takomillashtirib borish, aniq o‘yin faoliyatida foydalaniladigan maxsus sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashqlar hajmini asta-sekin oshirib borish zarur.

Gandbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi jismoniy qobiliyatlarni har tomonlama tayyorlash, umumiy ish qobiliyatini oshirish vazifalarini hal qiladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlar va sportning boshqa turlaridan olingan shug‘ullanuvchilar organizmiga umumiy ta’sir ko‘rsatuvchi mashqlar bunda asosiy vositalar sifatida qo‘llaniladi. Gandbolchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligida kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, epchillik asosiy o‘rin tutadi. Ayni shu jismoniy fazilatlar gandbolchilarning harakat imkoniyatlari darajasini ifodalaydi. Yosh gandbolchining o‘ziga xos qobiliyatini rivojlantirish usul va vositalarini to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega. Gandbol rivojlantirish bo‘yicha o‘quv guruhlari tashkil etish va milliy xarakatli o‘yinlar “Kim epchilu- kim chaqqon”, “otildi quyon” o‘yinlarini muntazam o‘ynatish orqali o‘yinga tayyorgarlikni mustaxkamlanishining asosi qilib olinadi. Gandbol bo‘yicha o‘quv guruhlari tashkil etish va talabalarning sportdagi natijalarini oldindan aytib berishda testlar o‘tkazish usuli va o‘yinga tayyorgarlikni tahlil qilish asos qilib olinadi. Bunda pedagogik mahorat va shug‘ullanuvchilar sog‘ligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham e’tiborga olish lozim.

**XULOSA.** Olingan natijalarda shuni xulosa qilish mumkunki dastlab tadqiqot olib borilgan talabalarning gandbol tezlik va reaksiya pasivroq edi. Milliy xarakatli o‘yinlar bilan ikki oy mobaynida olib borilgan tekshiruv yakunida gandbolchi talabalarning tezligi sezilarli darajada rivojland. Bu tadqiqot o‘z navbatida jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, jismonan sog‘lom va ma’naviy sog‘lom bo‘lishga undaydi. Talabalarni barkamol qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb e’tadi. Sog‘lom xamda xar bir fanda yaxshi natijalarga erishish uchun, xarakatlarni to‘g‘ri bajarish, talabalarni sog‘lom avlod ruxida tarbiyalashga xamda ularni ulkan natijalarga tez erishishni ta’minlaydi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild Toshkent O‘zbekiston. 2017-B.591
2. Аулик И. В. Определение физической работоспособности в клинике и спорте / Москва. – Изд-во «Медицина», 1990. – С.34–56.
3. Milliy va xarakatli o‘yinlar o‘rgatish metodikasi K. Raximqulov
4. 500 Milliy xarakatli o‘yinlar .T.S. Usmonxo‘jayev, X.A. Meliyev
5. Pavlov Sh.K. Abdurahmonov F.A. Azizov R.I. (Musoboqa qoidalari, ularni tashkil etish va o‘tkazish tizimi).- Toshkent- 2007 yil.
6. O.A.Sobirov, K.M.Umarov “Gandbol nazariyasi va uslubiyati” o‘quv qo‘llanma. Samarqand-2022